

## SITRUS MEVALARINI YETISHTIRISHNING IQTISODIY JIHATDAN RIVOJLANISHI

**Qurbonov Shovqi Djurayevich**

**Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13858939>

**Annotatsiya:** Bugungi kunda aholini sitrus va sitrus mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga faqatgina ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, yangiliklarni joriy etish orqali erishish mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida tarmoqni yuqori rentabelli faoliyat yuritishi uchun sitrus yetishtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi kompleks (tabiiy-iqlim, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, innovasion, marketing va bozorga xos bo'lgan) omillarni aniqlash talab etiladi.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi texnologiyasi, sitrus mevalar, subtropik, tropik, eksport.

**Аннотация:** Сегодня удовлетворить спрос населения на цитрусовые и цитрусовую продукцию можно только путем внедрения инноваций и инноваций в производственный процесс. В условиях рыночных отношений для функционирования сети с высокой рентабельностью необходимо выявление комплексных (природно-климатических, технологических, социально-экономических, инновационных, маркетинговых и рыночных) факторов, влияющих на эффективность выращивания цитрусовых.

**Ключевые слова:** агротехника, цитрусовые, субтропические, тропические, экспорт.

**Abstract:** Today, it is possible to satisfy the population's demand for citrus fruits and citrus products only by introducing innovations and innovations into the production process. In the conditions of market relations, for the functioning of a network with high profitability, it is necessary to identify complex (natural-climatic, technological, socio-economic, innovative, marketing and market) factors affecting the efficiency of citrus cultivation.

**Key words:** agricultural technology, citrus fruits, subtropical, tropical, export.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash muammosi dolzarb ehtiyojga aylandi, shuning uchun ekinlarni etishtirishning an'anaviy texnologiyasi tushunchalarini nafaqat atrof-muhitni boshqarish nuqtai nazaridan, balki sanoatdagi iqtisodiy vaziyatni yaxshilash uchun ham jiddiy qayta ko'rib chiqish kerak. Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar ichida hozirgi kunda barchani qiziqтира olgan va anchayin xaridorgir mahsulot bo'lgan sitrus mevalarni yetishtirish va qayta ishlash va xalqimiz dasturxoniga yetqazib berish anchayin mashaqqatli mehnatni talab etadi. Sitrus mevalarni yetishtirish va boshqa mamlakatlarga eksport qilishni yo'lga qo'yish shu bilan birga tropik va subtropik joylashgan hududlarda qishloq xo'jaligining yana bir bo'g'ini bo'lgan sitrus mevalarni istimolini kengaytirish, shu bilan birga ishlab chiqaruvchilar uchun mutadil iqlim sharoitlarini yaratish, sharoiti bir qancha og'ir iqlim hududlarida joylashiga qaramasdan sitrus mevachilik sohasida o'z mehnatini namoyon etish bilan bir qatorda, jahon bozorida birinchi navbatdagi importyor sifatida qaraldi. Shu munosabat bilan, mamlakatimizning sitrus mevalarini yetishtirish va uni import qilish, shuningdek, bu jarayondagi o'rni, bu mevalarni etkazib beradigan davlatlar qatorida o'rni mustahkamlanib bormoqda. Bu harakatlar mamlakatimiz tomonidan, harakatlar strategiyasini ishlab chiqib yana bir bor mustahkamladi. O'zbekiston

sitrus mevalari eksporti bo'yicha jahonda yetakchilari qatorida o'z mavqeini mustahkamlay olishi uchun mamlakatimizda anchayin ishlar amalga oshirilib bormoqda. Bunga erishish uchun ilmiy tadqiqot institutlar, urug' urchitish laboratoriyalari va issiqxonalarga mutaxassis dehqonlar jalb etilgan ular tomonidan mahsulotlar sifati va xavfsizligini oshirish, yanada zamonaviy navlar majmuasini yaratish, saqlash, sovtutish, qayta ishlash va qadoqlashga bo'lgan turli xil yondoshuvlarni ishlab chiqish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bu murakkab jarayonlarning barchasi hosildorlikning oshishiga, eksport hajmining oshishiga, umuman, qishloq xo'jaligining rivojlanishiga olib kelishi ayni muddaodir. O'zbekiston aholisining sitrus mevalariga bo'lgan talabi yildan yilga sezilarli darajada ortmoqda. So'zim isboti sifatida bundan bir necha yil avvalgi yetishtirilgan limon sitrus mevasining eksport ko'rsatgichlaridan, hozir ikki uch barobarga o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Bunga birgina misol keltirish mumkinki, katta katta issiqxonalarlarda yetishtirish bilan birga 2017 – yilda har bir fermerlik faoliyatida faoliyat olib borayotgan fermer xo'jaliklari rahbarlari uchun limon ko'chatining tarqatilishi, sitrus mevalarni yurtimizda yanada rivojlanishiga olib keldi, bu faoliyat nafaqat fermer xo'jalik vakillariga balki barcha soha mutasaddilari berilganligi ayni muddao bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu faoliyat chekka chekka qishloqlarda ham amalga oshirildi. Demak dehqonchilikdan xabari bor odamlarning barchasi limonchilik faoliyati bilan shug'illanishdi va natijada limondan ro'zg'ori uchun yaxshiga daromad ko'ra boshladi. 2017-yilda boshlangan bu tashviqot 2021-yilning 2-choragiga kelib 5097 tonnaga yetqazildi, bu 2016-yilning shu davriga nisbatan 2 barobar ko'pdir. Shuningdek, laboratoriyalarda limon, mandarin va apelsinning yangi navlarini yaratish ishlari samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib 2022-yilda sitrus mevalar yetishtirish uchun umumiy maydonni 4 ming 218 gektarga yetkazildi. Tadqiqotlarimiz davomida shunga amin bo'ldikki, O'zbekistonda 2022-yil 2-choragi oxirlaridagi mevalarning ulgurji narxlarini bir yil avval qayd etilgan narx darajasi bilan solishtirganimizda. Ular mahalliy mevalarning aksariyat toifalari narxining sezilarli darajada oshishini aniqladilar. Ayni paytda chetdan keltiriladigan sitrus mevalar, banan, ananas, kivi, mango kabi mevalar ham arzonlashdi. Ochig'i, banan, apelsin va mandarinlar narxining pasayishi O'zbekiston hukumatining 2021-yil 21-oktabrdagi bir qator mahsulotlarga import bojlarini vaqtincha bekor qilish to'g'risidagi qarori bilan bog'liq deya olamiz. Natijada, 2022-yil 28-yanvar holatiga ko'ra, apelsinlarning ulgurji narxlari o'tgan yilga nisbatan 22 foizga, mandarinlar esa o'tgan yilga nisbatan 23 foizga arzonlashgan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar tomonidan ochiq va yopiq tuproqlarda sitrus ko'chatlarining yangi navlarini yetishtirish, shuningdek, ona o'simliklarni (urug'lik maqsadida tanlab olingan ikki yillik o'simliklardan) tashkil etish maqsad qilib olingan hamda sitrus kuchatlarni, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Laboratoriyalarda olimlarimiz, issiqxona mutaxassislari bilan birga limon, apelsin va mandarin mevalarining uzoq yo'lga yaroqli turlarini yaratish va sitrus mevalar eksporti va boshqa mamlakatlarga tashishga yaroqli navlarini yaratish ustida ishlamoqda. Va 2020-yil 19-fevraldagi PQ-4610-son qaroriga muvofiq bu faoliyat mamlakatimiz rahbari tamonidan yanada mustahkamlandi bunga muvofiq, Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tekshirish instituti huzurida Sitrus, subtropik va tropik o'simliklar ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari uyushmasi tashkil etildi. akademik M.Mirzayev nomidagi Uyushma respublikada sitrus mevachilik sohasini rivojlantirish, ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish, ilg'or va zamonaviy resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash asosida yuqori sifatli sanoat va eksportbop sitrus

mevalari yetishtirishni ko'paytirish maqsadida tashkil etilgan. 2023- yilning yanvarida sitrus mevalar narxлари 2022-yilning yanvariga nisbatan 11,2 % ga past bo'ldi. Shundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda sitrus mevalar yetishtirish ko'lami kengayib bormoqda.

### 1-jadval

#### Respublikada yetishtirilgan sitrus mevalari

No	Mahsulot turi	O'lchov birligi	2019 y	2019 y	2020 y.	2021 y.	2022 y	2023 y.
1	sitrus mevalar	tonna	64,0	30,0	14,1	5,0	5,3	5,0
2	limon	tonna	64,0	30,0	14,1	5,0	5,3	5,0

Shundan kelib chiqib, limonchilikda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish butun bir innovatsiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asosiy vazifasi aholi turmush tarzi darajasini oshirish maqsadida, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash darajasini va sifatini oshirish, ekotizimga salbiy antropogen ta'sirlarni kamaytirish bilan bir vaqtda resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shu faoliyat natijasida yetishtirilgan sitrus mahsulotlar yillar kesimida.

### 2-jadval

#### Barcha toifaladagi xo'jaliklarda yetishtirilgan sitrus mevalar

Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	4,8	5,8	3,5	11,9	9,5	10,0	9,9	10,6	11,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Andijon viloyati	0,3	0,4	0,4	1,2	3,9	3,2	2,9	3,1	3,0
Buxoro viloyat	0,4	0,4	0,4	0,7	0,5	0,5	0,5	0,6	0,5
Jizzax viloyati	0,0	0,0	0,1	0,2	0,1	0,1	0,0	0,1	0,1
Qashqadaryo viloyat	0,1	0,5	0,5	1,3	1,0	1,9	1,9	2,0	2,0
Navoiy viloyati	0,9	1,0	0,3	0,5	0,5	0,2	0,4	0,3	0,4
Namangan viloyati	0,0	0,1	0,1	1,5	0,5	0,7	0,5	0,7	1,1
Samarqand viloyati	0,3	0,3	1,1	1,0	0,3	0,4	0,3	0,3	0,4
Surxondaryo viloyati	2,0	2,2	0,1	2,7	1,0	1,8	1,7	1,9	1,8
Sirdaryo viloyati	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Toshkent viloyati	0,2	0,2	0,2	0,4	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Farg'ona viloyati	0,5	0,6	0,9	2,1	0,9	1,2	1,4	1,5	1,7
Xorazm viloyati	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1
Toshkent shahri	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Xulosa o'rnida sitrus mevachilik tarmog'ini raqobat ustunligini ta'minlash uchun, nafaqat, ishlab chiqarishni intensivlashtirishni oshirib borish, balki, shu bilan birga, nomoddiy aktivlardan ya'ni, innovasion g'oyalar, marketing tadqiqotlari, texnologik nou-xau, dizayn, mahsulotlar assortimenti va xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish, xodimni ijodiy mehnatga

qobiliyati, xo'jalik yuritishni boshqarishning yangi usullari, limon yetishtiruvchilarni savdo va qayta ishlovchilar bilan integratsiyalashuvi kabi omillardan ham foydalanish zarur.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 5 noyabrda mevasabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va eksportini oshirish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan video-selektordagi ma'ruzasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2020 yil 25 dekabr.
3. Имомов Р.Д. Лимончилик соҳасида интеграция муносабатлари – кооперацияни ривожлантиришнинг муҳим омилidir. АГРО бизнес информ ижтимоий-иқтисодий ихтисослашган ойлик журнал. №11 (154) 2019 йил, 24-25-б.
4. Имомов Р.Д. Ўзбекистонда лимончилик тармоғини ривожлантириш ва давлат томонидан рағбатлантириш механизмлари. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№7/4 (91), <http://mamun.uz/uz/page/56> Xiva-2022. 26-30 бетлар.
5. Куликов И.М. Научная и инновационно-инвестиционная стратегия развития плодово-ягодного комплекса АПК, как важнейший резерв в формировании здорового организма человека в XXI веке// Сб.статей. - М. 2006. – 157 с. с ил. (С. 9-31).
6. Мамедов Р.Ш. Антикризисный механизм хозяйствования в АПК России. - М., Агро-Пресс, 2000 г. – 90 с
7. Dustova M. COINS TO CRYPTOS: TRACING THE THREADS OF ECONOMIC TRANSFORMATION //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – Т. 24. – № 5. – С. 78-82.
8. Dustova M. X., Shomurotova S. O. TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SAMARALI BOSHQARISH //Conferencea. – 2022. – С. 119-121.
9. Khudayberdievna D. M. Improving the Mechanism of Financial Lending to Agricultural Enterprises. – 2023.
10. Дустова М. К., Шомуротова С. Роль иностранных инвестиций в развитии экономики //Научный прогресс. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 1021-1025.